

YOSHLAR O'RTASIDA GIYOHVANDLIK VA PSIXOTROP MODDALAR
BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNI OLDINI OLISH
ПРОФИЛАКТИКА ПРЕСТУПЛЕНИЙ, СВЯЗАННЫХ С
НАРКОТИКАМИ И ПСИХОТРОПНЫМИ ВЕЩЕСТВАМИ,
СРЕДИ МОЛОДЕЖИ
PREVENTION OF DRUG AND PSYCHOTROPIC SUBSTANCE-
RELATED CRIMES AMONG YOUNG PEOPLE

Akramjonov Iqboljon Akramjon o'g'li
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti magistraturasi tinglovchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlar o'rtasida giyohvandlik va psixotrop moddalar bilan bog'liq jinoyatlarning sabablari, ularning ijtimoiy, psixologik va huquqiy oqibatlarini tahlil qilingan. Shuningdek, giyohvandlikning shakllanish bosqichlari, uning yosh avlod tarbiyasiga ko'rsatadigan salbiy ta'siri hamda O'zbekiston va xalqaro miqyosda olib borilayotgan profilaktika va kurash choralari yoritilgan. Tadqiqot natijalari yoshlarni giyohvandlikdan asrashda ma'naviy immunitetni mustahkamlash, oila va ta'lim tizimining o'rni beqiyos ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: giyohvandlik, yoshlar, psixotrop moddalar, jinoyat, profilaktika, deviant xulq, sog'lom turmush tarzi.

Аннотация: В данной статье анализируются причины, социальные, психологические и правовые последствия преступлений, связанных с употреблением наркотических и психотропных веществ среди молодежи. Освещены этапы формирования наркотической зависимости, ее разрушительное влияние на воспитание подрастающего поколения, а также меры профилактики и борьбы с наркоманией, реализуемые в Узбекистане и на международном уровне. Результаты исследования показывают, что укрепление

духовного иммунитета молодежи, роль семьи и системы образования играют решающую роль в предупреждении наркомании.

Ключевые слова: наркомания, молодежь, психотропные вещества, преступность, профилактика, девиантное поведение, здоровый образ жизни.

Abstract: This article analyzes the causes, social, psychological, and legal consequences of crimes related to drug and psychotropic substance abuse among young people. It discusses the stages of drug addiction development, its destructive impact on youth upbringing, and preventive and control measures implemented in Uzbekistan and at the international level. The research findings demonstrate that strengthening the spiritual immunity of young people, along with the vital roles of family and education systems, is crucial in preventing drug addiction.

Keywords: drug addiction, youth, psychotropic substances, crime, prevention, deviant behavior, healthy lifestyle.

Kirish

Zamonaviy dunyoda giyohvandlik va psixotrop moddalar iste'moli global muammo darajasiga ko'tarilgan. Bu illat nafaqat inson salomatligiga, balki jamiyatning ma'naviy, iqtisodiy va huquqiy asoslariga ham jiddiy xavf tug'diradi. Ayniqsa, yoshlar o'rtasida giyohvandlikka moyillikning ortib borishi — kelajak avlodning ma'naviy inqirozga yuz tutishi xavfini keltirib chiqarmoqda. Shu sababli, giyohvandlik va psixotrop moddalar bilan bog'liq jinoyatlarning oldini olish masalasi nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar, balki ta'lim muassasalari, oila va jamoatchilikning ham umumiy vazifasiga aylanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev o'z chiqishlarida yoshlar tarbiyasi, ularning ongini yot g'oyalardan, turli zararli illatlardan himoya qilish masalasiga alohida e'tibor qaratib keladi. Zero, "yoshlar — mamlakatning ertangi kuni, ularning salomatligi esa millatning genofondi" hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, giyohvandlikning oldini olishda profilaktik choralar, huquqiy savodxonlikni oshirish hamda ijtimoiy nazoratni kuchaytirish bugungi kunda eng muhim vazifalardan biridir.¹

¹ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2021.

Oxirgi 10 yil ichida giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilar soni 23 foizga oshib, 296 million kishiga yetdi. Noqonuniy bozorlarda sintetik moddalar hukmronlik qilmoqda, deyiladi BMT hisobotida².

Giyohvandlik (yunoncha “*narke*” – *karaxtlik* va “*maniya*” – *bangilik*) insonning narkotik vositalarga nisbatan ruhiy va jismoniy qaramlik holatidir. U faqat shaxs salomatligiga emas, balki jamiyat ma'naviy muhitiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xoldorov M. (2021) o'z tadqiqotida ta'kidlaganidek, giyohvandlik — bu deviant xulq-atvorning shakli bo'lib, yoshlarning ijtimoiy faolligini pasaytiradi, ularni jinoyatchilik yo'liga boshlaydi³. Shu sababli bu muammoni chuqur ilmiy tahlil asosida bartaraf etish bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biridir.

Giyohvandlikning ijtimoiy xavfi va shakllanish bosqichlari

Giyohvandlikning asosiy xavfi — insonni o'z irodasidan, tafakkuridan va hayotiy maqsadlaridan mahrum etishidir. Dastlab “ko'ngilxushlik” yoki “oddiy sinab ko'rish” tarzida boshlangan bu odat insonni tez orada o'ziga tobe etadi. Narkotik moddalarni bir marta tatib ko'rgan shaxs keyinchalik u holdan chiqolmaydi, uni topish uchun har qanday jinoyatdan ham toymaydi.

Tibbiy tadqiqotlarga ko'ra, bu jarayon to'rt bosqichda kechadi:

1. **Boshlang'ich bosqich** – 5–10 daqiqa ichida xavotir va shubha paydo bo'ladi;
2. **Eyforiya bosqichi** – soxta baxt va quvonch hissi yuzaga keladi;
3. **Psixotik bosqich** – chalkashlik, gallyusinasiyalar va vasvasa holatlari kuzatiladi;
4. **Inqiroz bosqichi** – ruhiy tushkunlik, charchoq, bezovtalik, aqliy tanazzul bosqichidir.⁴

² <https://www.gazeta.uz/oz/2023/06/27/drug-report/>

³ “Giyohvandlik va psixotrop moddalar bilan bog'liq jinoyatlarni oldini olish” Xoldorov M. (2021)

⁴ “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurash to'g'risida”gi Qonun, 2019-yil 15-aprel.

Bemorlarning 2/3 qismida dastlabki bosqichda lazzatlanish hissi, zavq, xursandchilik, kuch-quvvat ortishi holatlari kuzatiladi. Ammo bu holat qisqa muddatli bo'lib, tez orada insonni to'liq ruhiy va jismoniy qulga aylantiradi.

Odam giyohvandlikka muhtalo bo'lgach, o'rtacha 5 yildan ortiq umr ko'ra olmaydi. Shuningdek, statistik tahlillarga ko'ra, aholining 7 foizi narkotik moddalarni iste'mol qila boshlasa, bu jamiyat uchun xavfli chegaradir.

Yoshlar o'rtasida giyohvandlikning tarqalish sabablari

Yoshlarning giyohvandlik yo'liga kirishida bir nechta omillar rol o'ynaydi:

Ijtimoiy muhit – oiladagi befarqlik, ota-onalar o'rtasidagi nizolar;

Psixologik sabablar – stress, o'zini jamiyatda tutolmaslik, hayotdan norozilik;

Do'stlar ta'siri – “bir marta sinab ko'rish” orqali qaramlikka olib kirish;

Axborot xavfi – internet va ijtimoiy tarmoqlarda giyohvandlikni “moda” sifatida targ'ib qilish.

BMT ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda 500 milliondan ortiq inson giyohvandlik dardiga muhtalo bo'lgan, ularning yarmi 30 yoshgacha bo'lganlar. Har yili 200 ming kishi shu illat sabab vafot etadi. O'zbekistonda so'nggi yillarda giyohvandlik va psixotrop moddalar bilan bog'liq jinoyatlarning 33,4 foizi yoshlar tomonidan sodir etilgan.⁵


Yoshlar orasida “Tramadol”, “Pregabalin”, “Tropikamid” kabi kuchli ta'sir qiluvchi dori vositalarining noqonuniy iste'moli xavfli ko'lamda kengaymoqda. Bu holatlarni bartaraf etish uchun huquqiy va ma'rifiy profilaktika mexanizmlari kuchaytirilmoqda.

2023-yilgi statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda giyohvandlik va psixotrop moddalar bilan bog'liq jinoyatlarning **33,4 foizi yoshlar tomonidan sodir etilgan**. Bu ko'rsatkich muammoning qanchalik keskinligini anglatadi⁶.

⁵ YUNODK (UNODC) hisobotlari: “Global Drug Report”, 2023-yil.
<https://www.gazeta.uz/oz/2023/06/27/drug-report/>

⁶ O'z.Res. IIV Huquqiy statistika va tezkor hisob ma'lumotlar boshqarmasi ma'lumotlar bazasi.

2023-yil davomida O'z.Res.JK 274 moddasi bilan jinoyat sodir etilish statistik ko'rsatkichlari



Giyohvand moddalar turlari va ularning oqibatlari

Zamonaviy tasnifga ko'ra giyohvandlik vositalari quyidagi toifalarga bo'linadi:

Opiy va uning hosilalari: morfin, heroin, kodein, omnopon, promedol.

Kannabis (konoplya): marixuana, gashish, anasha.

Kokain va uning moddalari: krek, estezi.

Gallyusinogenlar: LSD, psixolotsin, psilotsebin.

Psixostimulyatorlar: fenamin, pervitin, kofein.

Sedativ moddalar: relanium, tazepam.

Barbituratlar: barbamil, nembutal, luminal.

Alkogol va tamaki.

Maishiy kimyo vositalari: laklar, kleylar, benzin bug'lari.

Ularning barchasi asab tizimini falaj qiladi, yurak va jigar faoliyatini izdan chiqaradi, shuningdek, ruhiy nosog'lomlikni kuchaytiradi.⁷

Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha 500 milliondan ortiq kishi giyohvandlikka muhtalo bo'lgan, ularning 200 ming nafari har yili hayotdan ko'z yumadi. Eng ko'p giyohvandlik holatlari AQSh (5,5 mln), Rossiya

⁷ O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi ma'lumotlari, 2024-yil.

(4,3 mln), Fransiya (3,8 mln), Afg'oniston (3,5 mln) va O'zbekistonda (25,8 ming) qayd etilgan.⁸

Giyohvandlik va jinoyatchilik o'rtasidagi bog'liqlik

Giyohvandlik — jinoyatchilikning asosiy manbalaridan biridir. Narkotik moddalarni iste'mol qiluvchi shaxs ularni muntazam ravishda topish uchun moliyaviy manba izlaydi, bu esa uni noqonuniy harakatlarga — o'g'irlik, talonchilik, firibgarlik, kontrabanda va hatto qotillik kabi jinoyatlarga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasining **Jinoyat kodeksida** giyohvandlik va psixotrop moddalar bilan bog'liq jinoyatlar uchun qattiq javobgarlik belgilangan. Xususan:

Jinoyat kodeksining XIX bobi Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlar deb nomlanib 270-276-moddalarda keltirilgan quyidagi normalardan tashkil topgan:

270-modda. Taqiqlangan ekinlarni yetishtirish

271-modda. Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda egallash

273-modda. Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlab qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash va boshqa harakatlar qilish, shuningdek ularni qonunga xilof ravishda o'tkazish

274-modda. Giyohvandlik vositalarini, ularning analoglarini yoki psixotrop moddalarni targ'ib qiluvchi mahsulotni tayyorlash, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish yoki bunday moddalarni iste'mol qilishga jalb etish

275-modda. Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar ishlab chiqarish yoki ulardan foydalanish qoidalarini buzish

276-modda. Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar⁹

⁸ UNODC. *World Drug Report*. – 2023.

⁹ O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – Toshkent, 2024.

Mazkur normalar giyohvandlik jinoyatlarining ijtimoiy xavfini kamaytirishga xizmat qilsa-da, ularni faqat jazolash orqali emas, balki **profilaktika** yo‘li bilan bartaraf etish samaraliroqdir.

Giyohvandlikka qarshi kurashning huquqiy va xalqaro asoslari

Giyohvandlik global muammo sifatida BMT doirasida ham muhokama etilmoqda. 1987-yil 7-dekabrdagi **47/112-sonli rezolyusiya** asosida **26-iyun** — **Xalqaro giyohvandlikka qarshi kurash kuni** deb e‘lon qilingan.

BMT huzurida **Giyohvandlik vositalari bo‘yicha komissiya, Giyohvandlik va jinoyatchilik bo‘yicha boshqarma**, hamda **Xalqaro nazorat qo‘mitasi** faoliyat yuritmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi bu yo‘nalishda faol ishtirok etib, quyidagi hujjatlarni qabul qilgan:

“**Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida**”gi Qonun;¹⁰

“**Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida**”gi Qonun;

“**Surunkali alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka muhtalo bemorlarni majburiy davolash to‘g‘risida**”gi Qonun;

“**Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi to‘g‘risida**”gi Qonun.

Shuningdek, 2006-yil 24-iyulda Ostona shahrida imzolangan **Markaziy Osiyo mintaqaviy axborot muvofiqlashtirish markazini tashkil etish to‘g‘risidagi bitim** mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Ichki ishlar organlari tomonidan 2021–2023-yillarda olib borilgan amaliy tadbirlar natijasida **13,8 tonna giyohvandlik vositalari musodara qilingan**.

Ammo zamonaviy xavf — **onlayn giyohvandlik savdosidir**. So‘nggi tahlillarga ko‘ra, Telegram messenjerida giyohvand moddalar savdosiga ixtisoslashgan 38 ta manba faoliyat yuritgan bo‘lib, ularning umumiy auditoriyasi 119 mingdan ortiq

¹⁰ “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi Qonun, 2019.

foydalanuvchini tashkil etgan. Shu bois, kiberxavfsizlikni ta'minlash ham dolzarb yo'nalishga aylangan.

Xulosa va takliflar

Giyohvandlik — bu nafaqat tibbiy, balki ma'naviy va huquqiy inqirozdir. U millatning eng faol qismini yo'qotadi, jamiyatni ijtimoiy tanazzul sari yetaklaydi. Shu bois, bu illatga qarshi kurash nafaqat davlat organlarining, balki har bir fuqaroning burchidir.

Giyohvandlik va psixotrop moddalar insoniyatning sog'lom genofondiga jiddiy tahdid solmoqda. U nafaqat sog'liqni, balki millatning ma'naviyatini yemiruvchi ijtimoiy illatdir. Ayniqsa yoshlarning bunga berilib ketishi kelajak avlodning ma'naviy inqiroziga olib keladi.

Muammoni bartaraf etish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Ta'lim muassasalarida giyohvandlikning zararlarini yorituvchi maxsus fan yoki modullar joriy etish.
2. OAV va ijtimoiy tarmoqlarda sog'lom turmush tarzini targ'ib etuvchi davlat dasturlarini kengaytirish.
3. Ota-onalarning farzandlari bilan muloqotini kuchaytirish, oilaviy psixologik madaniyatni oshirish.
4. Onlayn giyohvandlik savdosiga qarshi maxsus kiber-patrullar faoliyatini yo'lga qo'yish.
5. Yoshlar uchun bepul psixologik yordam markazlarini tashkil etish.

Zero, sog'lom, g'ayratli va irodali yoshlar jamiyat taraqqiyotining poydevoridir. Giyohvandlikka qarshi kurash har bir fuqaroning burchi, sog'lom avlodni tarbiyalash esa barchamizning mas'uliyatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – Toshkent, 2024.
3. “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida”gi Qonun, 2019.

4. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O‘zbekiston strategiyasi*. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021.
5. UNODC. *World Drug Report*. – 2023.
6. O‘zbekiston Respublikasi IIV statistik ma’lumotlari, 2024.
7. Karimov I.A. *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch*. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2008.
8. “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Qonun, 2019-yil 15-aprel.
9. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi ma’lumotlari, 2024-yil.
10. YUNODK (UNODC) hisobotlari: “Global Drug Report”, 2023-yil.